

электронное периодическое издание

# ЭКОНОМИКА

и

*социум*

ISSN 2225-1545

№5(132)-2025



*Xujakeldiyev K. N., PhD  
dotsent  
Irrigatsiya muhandisligi fakulteti  
Yerdan foydalanish, geodeziya va geoinformatika kafedrası  
Qarshi davlat texnika universiteti  
Toshpulatova D. R.  
magistranti  
Kadastr yo'nalishi  
Qarshi davlat texnika universiteti*

**TOG' OLDI YAYLOVLARI MONITORINGINI YURITISH  
USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH (QASHQADARYO VILOYATI  
MISOLIDA)**

*Annotatsiya:* Tog' oldi yaylovlari monitoringini yuritish uslubiyatini takomillashtirish, yer monitoringini yuritish – davlat miqyosida xalq xo'jalik tarmoqlari bo'yicha yerlardan foydalanishda ro'y bergan jarayonlarning o'zgarishini, yer resurslarining miqdori va sifati holatini uzluksiz kuzatish tizimini tashkil etish hamda ma'lumotlar bilan yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish jarayonini ta'minlashga qaratilgan va dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

*Kalit so'zlar:* yaylov, yer fondi, monitoring, degradatsiyasi deqratsiyasi, yem – hashak, pichanzor, masofadan zondlash, fermer xo'jaliklari, poda, o'tarlar.

*Khujakeldiyev K. N., PhD  
Associate Professor.  
Faculty of Irrigation Engineering  
Department of Land Use, Geodesy and Geoinformatics  
Karshi State Technical University  
Toshpulatova D. R.  
master's student  
Cadastre Department  
Karshi State Technical University*

**IMPROVING THE METHODOLOGY OF MONITORING FOOTPATH  
PASTURES (on the example of Kashkadarya region)**

*Abstract:* Improving the methodology for monitoring foothill pastures, conducting land monitoring - is a state-wide system aimed at organizing a continuous monitoring system for changes in land use processes across sectors of the national economy, the quantity and quality of land resources, and ensuring the effective use of land resources with information and is considered an urgent problem.

**Keywords:** *pasture, land fund, monitoring, degradation, fodder - hay, hayfield, remote sensing, farms, herd, pastures.*

Yildan yilga nafaqat respublikamizda, balki dunyo aholisi soni o'sayotgan, tabiiy resurslar cheklangan, inson ehtiyojlari esa ortib borayotgan bir davrda, aholining go'sht sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'laqonli qondirish, chorvachilik mahsulotlari hajmi va sifatini oshirish, shuningdek, chorva mollarini yem - hashak bilan ta'minlash uchun yaylovlar holatini yaxshilash, unumdorligini oshirish, yaylov degradatsiyasini - bartaraf qilish chorvachilik istiqbolini rivojlantirish shu kunning asosiy maqsadi va vazifasi hisoblanadi.

Yaylovlarni muhofaza qilish, ulardan samarali va oqilona foydalanishni tashkil etish, yaylov xo'jaligini rivojlantirish yangi bosqichga olib chiqish, sohada boshqaruvning ixcham va samarali tiizmini joriy etish, chorvachilik xo'jaliklarining yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini etirof etish maqsadida yurtimizda bir qancha qaror va qonunlar qabul qilinmoqda.

Qashqadaryo viloyati yer fondining toifalari boyicha taqsimlanishi 2024- yil 1-yanvar holatiga ko'ra jami yerdan foydalanishlar soni 58 985 ta, umumiy yer maydoni 2 856799 ga, qishloq xo'jaliklari yerlari 51057 ta, maydoni 2 339 753 ga, aholi punkti yerlari soni 58 ta, maydoni 12 427 ga, sanoat transport aloqa mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar soni 6311ta, maydoni 69304 ga, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekratsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar soni 6 ta, maydoni 75314ga, tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlari soni 1173ta, maydoni 2567ga, o'rmon fondi yerlari soni 29 ta, maydoni 316706 ga, suv fondi yerlari 333 ta, 37090 ga va zaxira yer maydoni 18 ta, 3819 ga ni tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyatida yangi o'zlashtirilgan yer maydonlari to'g'risida 01.01.2025 yil holatiga ko'ra viloyatda jami 9165 ga yer maydoni, 7128 ga lalmi yer maydoni, 2037 ga yaylov pichanzorlari, yer hisobotiga kiritiladigan yer turi 9165 ga yer maydonini tashkil etadi.

Yer monitoringini yuritish – davlat miqyosida xalq xo'jalik tarmoqlari bo'yicha yerlardan foydalanishda ro'y bergan jarayonlarning o'zgarishini, yer resurslarining miqdori va sifati holatini uzluksiz kuzatish tizimini tashkil etish hamda ma'lumotlar bilan yer resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish jarayonini ta'minlashga qaratilganidir.

O'zbekiston respublikasining yer kodeksida takidlanganidek, Yer monitoringi yer tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yer fondining holatini kuzatib turish tizimidan iborat.

Davlat yer kadastrini yuritishni, yerdan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni, yerlarni muhofaza qilishni axborot bilan ta'minlash yer monitoringi asosida amalga oshiriladi.

Yer monitoringini o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi deyilgan (1).

Shuningdek tog' oldi yaylovlari monitoringini yuritish uslubiyatini takomillashtirishning vazifalarini belgilashda, tadqiqot vazifasini ifodalash, ko'rsatkichlashtirish (parametrizatsiya) va o'lchovini izlashdan iboratdir. Vazifani ifodalash obektini ifodalovchi tenglamalar majmuasini topishdadir. Bu bosqich oldingi - tanlash va keyingi - yechish bosqichlari bilan bog'liqdir. Vazifani qoyishning uchta ketma-ketlik tarzda ko'rsatish maqsadga muvofiqdir: ko'rsatkichlashtirish (parametrizatsiya), o'lchovni izlash va o'zaro aloqalarni izlash. ularni juda ham mayda-mayda qismlarga bo'lib yubormaslik ilmiy tadqiqot metodologiyasi fani orqali bizga o'rgatilgan bo'lib, shunga muvofiq quyidagi vazifalarni belgilab olishga qaror qilindi:

- yaylovlardan oqilona foydalanish tartibi;
- yer va unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;
- yaylovlardan oqilona foydalanishga oid chet el tajribasini o'rganish va tahlil qilish;

- qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanish holatini o'rganish hamda uning natijasiga ko'ra xulosani shakllantirish tartibi;

- Berilgan birlamchi ma'lumotlardan quyidagilarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin:

- hozirgi paytda jahonning turli mintaqalarida masofadan zondlash orqali yaylov yerlaridagi o'zgarishlarni aniqlashga qaratilgan ustuvor yo'nlishlarda ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada yaylov yerlari monitoringiga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlariga ham alohida etibor qaratilmoqda [1. 5-b]. Respublika hududining katta qismini pichanzor va yaylovlar tashkil etadi. Bu yerlar chorvachilikni rivojlantirish uchun asosiy ozuqa bazasi hisoblanadi. 2024-yil 1-yanvar holatiga respublikada umumiy yer maydoni 16784,70 ming gektar tabiiy pichanzor va yaylovlar mavjud [4.27-b];

- tabiiy sharoitlarga qarab, yaylov va pichanzorlar cho'l - tekislik (cho'l mintaqasi), tekislik- tepalik (adir mintaqasi) va tog' oldi hududlari (tog' mintaqasi) ga bo'linadi. Mamlakatimizda o'simliklar tarqalishiga ko'ra mavjud yaylovlarning dengiz sathidan balandligi hisobga olingan holda to'rtta mintaga ajratilgan [1.8-9-b];

- O'zbekiston Respublikasi "Yaylov to'g'risida"gi (2) qonunning 8-moddasidagi 8-bandida yaylovlarning holatini baholab borishdan iboratdir;

- tog' oldi yaylov yerlari monitoringini yuritishga tadqiqotni boshqa usullari qatori kartografik tadqiqot usuli ham muhim o'rin tutadi. Axborotlarning boshqa manbalaridan farq qilib, pichanzor va yaylov yerlarining raqamli xaritalari ancha ko'rgazmali bo'lib, pichanzor va yaylovlarning fazoviy - hududiy tarqalishini, joylashuvini hozirgi holatini, ularni sifati va miqdoriy xususiyatlarga oid ma'lumotlarni tizimlashtirishga, rivojlanishning tabiiy va ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlarini yaqqol ko'rsatadi, ularni har bir turini faqat o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini atrof - muhit ayniqsa tabiiy sharoit va resurslar bilan to'g'ridan - to'g'ri o'zaro bog'liqligini va aloqadorligini va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, ular zamonaviy ilg'or fan ,

texnika va texnologiyalar erishgan yutuqlarni targ'ibot va tashviqot qilish hamda ularni ishlab chiqarishga joriy etishda yaxshi vosita hisoblanadi [3.85-b]

Tog' oldi yaylovlari monitoringini yuritish uslubiyatini takomillashtirish natijalari yer degradatsiyasi (tanazzul, zavol, inqiroz), uning omillari, yaylovlar degradatsiyasini bartaraf qilish va uning uslublarini takomillashtirish, yaylovlardan oqilona va samarali foydalanish, ularni barqaror boshqarish boyicha nazariyana ilgari surish va ishlab chiqarish va ishlab chiqarish hamda amalyotda qo'llash imkoniyatlarini beradi. Ishlab chiqarilgan taklif, tavsiya va uslublar istiqbolda yer degradatsiyasi omillarini bartaraf qilish, yaylovlar unumdorligini oshirish, yerdan samarali foydalanish, shuningdek, yer resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirishda asos bo'la oladi:

- yaylov yerlaridan foydalanishning boshqaruv tarkibini takomillashtirish
- yaylov yerlaridan foydalanishning boshqaruvi boyicha yagona uslubiyoti.

Chorvachilik istiqbolini rivojlantirish, dunyo bo'yicha aholining oziq-ovqatga bolgan ehtiyojini qondirishning rivojlanishiga respublika yaylov yerlaridan foydalanish samaradorligi muhim ta'sir ko'rsatadi. Shuni hisobga olgan holda aytish kerakki yaylovlarni barqaror boshqarish, chorvachilik istiqbolini rivojlantirish uchun yem- xashak yetishtirishni ko'paytirish, yaylov yerlari unumdorligini oshirish, xususan uni bartaraf qilish bugungi kunning asosiy muammolaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda hududlardagi aholi va fermer xo'jaliklari qaramog'idagi chorva sonining haqiqiy bosh soni yaylovlardagi mavjud ozuqa hajmidan bir necha barabar ko'pligini hisobga olib, yaylovlar degradatsiyasi muommosini yaylovlarning ozuqaviy hajmini chorva soniga yaqinlashtirish va boshqarishni amalga oshirmay turib bajarib bo'lmaydi.

Yaylov degradatsiyasini bartaraf qilish boyicha yuqorida sanab o'tilgan chora - tadbirlari va uslublarining barchasini samarali va lohiya hududi va unga o'xshash hududlarda qo'llash mumkin bo'lib, ular iqtisodiy, ham ekologik, shuningdek, ijtimoiy samaradorlikka egadir.

Ularning iqtisodiy samaradorligini mamlakat iqtisodiyotiga foyda keltirishida, ekologik samaradorligini tabiatni asrash, yaylovlarni tiklash va yaxshilashda va ijtimoiy samaradorligini esa, aholi turmush darajasining ko'tarilishida namoyon bo'ladi.

Shuningdek chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida yaylovlar hududini tashkil etishga alohida e'tibor qaratish kerak.

Yaylovlar hududini tashkil etish quyidagilardan iborat bo'ladi:

yaylovlarni chorvachilik fermalariga, majmualariga birlashtirishdan;

yaylov almashishlarni tashkil etishdan;

poda va o'talar uchastkalarini, navbat bilan qamab boqiladigan uchastkalarni, yozgi lagerlarni, suv manbalarini va sug'orish joylarini, mollar haydaladigan yo'llarni joylashtirishdan.

Yaylovlar hududini tashkil etish masalalari har xil mintaqalarning, tumanlarning, yaylov turlarining aniq tabiiy va iqtisodiy sharoitlarini, ularning relef bo'yicha joylashishini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan tarzda

yechiladi. Bunda asosiy talablar quyidagilar hisoblanadi: poda uchastkalarining o't qoplamasi sifatining har xil turdagi va yoshdagi mollarning biologik xususiyatlariga mos kelishi, mollarning uzoqqa haydalishiga yo'l qo'ymaslik va almashlab ekishlarda yashil ozuqa ishlab chiqarish joylarini yaylov davrida mollar ularni iste'mol qiladigan joylarga yaqinlatish.

Yaylovlarni chorvachilik fermalari va majmualariga birlashtirish ularning har xil turdagi mollarni boqish uchun yaroqliligini, mollarni yozda saqlashning xususiyatlarini, o't qoplamasi sifatini hisobga olib bajariladi.

Yaylovalmashishlarni tashkil etish. Yaylovlardan bir xil muddatlarda mollarni boqish uchun to'xtovsiz foydalanishda o't qoplamasining botanik tarkibi yomonlashadi, uning mahsuldorligi pasayadi. Yaylovlar mahsuldorligini oshirish va o't qoplamasi tarkibini yaxshilash uchun mollarni boqish va o'tlatishni yaylovlarni to'la yoki qisman yaxshilash, pichan o'rish va o't qoplamasini yangilash uchun mol boqishdan chiqarish bilan almashtirib turish kerak bo'ladi. Bunga yaylovalmashishni joriy etish bilan erishiladi.

Yaylovalmashish deganda ularning mahsuldorligini o'tlatish, dam berish va pichan o'rishni ayrim uchastkalarda yillar bo'yicha o't qoplamasini qayta tiklash va yaxshilashga qaratilgan bo'yicha boshqa tadbirlar bilan birgalikda ketma-ket almashtirish yo'li bilan ushlab turishga va ko'tarishga qaratilgan yaylovlardan foydalanish va ularni parvarishlash tizimi tushuniladi. (3. 592-594 b)

Shunday qilib Tog' oldi yaylovlari monitoringini yuritish uslubiyatini takomillashtirish mavzusini yoritishda, zamonaviy GAT ning dasturiy ta'minotlari yordamida yer hisobi to'g'risidagi interfeyslarni ishlab chiqish va axborot almashinuvini takomillashtirish va tuproq unumdorligi va yer hisobi bo'yicha axborotlarni tahlil qilish uchun avtomatlashgan tizim algoritmini ishlab chiqish va masofadan zondlash yordamida yaylov yerlar monitoringini yuritish mexanizmini ishlab chiqish va moddiy texnika bazasini yaxshilash ishlarini amalga oshirish tarmoqlarni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 30 apreldagi "O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi" to'g'risidagi qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi PK-4243-sonli Qarori. Toshkent, 2019 y.

3. Avezbayev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. - Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2004. - 590-622 b.

4. Volkov S.N. Zemleustroystvo / Zemleustroitelnoye proyektirovaniye. Tom: Uchebnoye posobiye. - M.: "Kolos", 2001. - 648 b.

5. <https://agromonitoring.com> NDVI tahlillar (aerokosmik malumotlar).

6. <https://beefresearch.ca> Canadian grazing system.

7. <https://cropsoil.com.au> Australia soil analyses system.

8. [App.pasturemap.com](http://App.pasturemap.com) yaylov yerlar monitoringi dasturi.

9. [Yaylov.uz](http://Yaylov.uz) yaylov xaritalarini loyihalash veb sayti.

Urinova M. I., PARRANDALARNI NOTO‘G‘RI OZIQLANTIRISH TUFAYLI KELIB CHIQUADIGAN KASALLIKLARNI O‘Z VAQTIDA ANIQLASH .....	916
Urinova M. I., ASALARICHILIK: QADIMDAN BUGUNGACHA INSON SALOMATLIGINING TABIIY QO‘RIQCHISI .....	920
Urinova M. I., TUXUM YO‘NALISHIDAGI TOVUQLARNING PARRANDAXONADIGI TUXUMLARNI YEB QO‘YISHI SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH CHORALARI .....	924
Usmanova R., Shodiyeva U., O‘RTA OSIYOLIK MUTAFAKKIRLARNING GEOGRAFIYA FANI TARAQQYOTIDA ILMIY MEROSLARI .....	928
Usmonova Y.A., SHAHARLARNING HUDUDIIY KENGAYISHINI TADQIQ ETISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI .....	932
Xamidova M. O., CIVIC COMPETENCE AS A TARGET ORIENTATION FOR THE PROFESSIONAL TRAINING OF A SPECIAL EDUCATIONAL TEACHER .....	945
Xazratkulov S. A., IJTIMOIIY SIYOSAT TIZIMINING ZAMONAVIIY TALQINLARI VA UNING INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI.....	948
Xojibekova S. M., ULTRATOVUSH YORDAMIDA PAYVANDLASH USULINING O‘ZIGA XOSLIGI .....	952
Xujakeldiyev K. N., Toshpulatova D. R., TOG‘ OLDI YAYLOVLARI MONITORINGINI YURITISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH (Qashqadaryo viloyati misolida).....	960
Xujamova Sh.A., PSIXOLOGIYADA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINI MULOHAZALAR ALGEBRASI YORDAMIDA MODELLASH .....	965
Xusainov O. D., Xidoyatova N. S., AGLOMERATSION OMILLAR TA‘SIRIDA CHORVACHILIK INFRATUZILMASINING RIVOJLANISHI .....	969
Yoqubova G. E., SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O‘SMIRLARDA STRESS VA XAVOTIRNI KAMAYTIRISHNING INNOVATSION USULLARI .....	973
Yuldashev A. A., LANGUAGE, CULTURE, AND COMMUNICATION: BRIDGING THE INTERCULTURAL GAP .....	977
Yunusov O. G., TRADITIONS AND CHARACTERISTICS OF THE NATIONAL SINGING ART .....	983
Yusupov F. T., PRP THERAPY IN THE TREATMENT OF OSTEOARTHRITIS IN THE ELDERLY: A REVIEW .....	987
Zaripova M. K., USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING “SERGEY YESENIN’S WORKS” IN 8TH GRADE .....	990
Zaripova M.K., 8-SINFDA “SERGEY YESENIN ASARLARI”NI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.....	990